

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.09.2024.B.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ABDUVAHITOV BOZORMUROD**

**DIFFERENSIAL TOPSHIRIQLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNI**  
**BIOLOGIYA FANI OLIMPIADALARIGA TAYYORLASH**  
**METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**  
**(akademik litseylar misolida)**

**13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Abduvahitov Bozormurod**

Differensial topshiriqlar vositasida o‘quvchilarni biologiya fani olimpiadalariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (akademik litseylar misolida) ..... 5

**Абдувахитов Бозормурод**

Совершенствование методики подготовки учащихся к олимпиадам по биологии посредством дифференцированных задания (на примере академических лицеев) ..... 25

**Abduvakhitov Bozormurad**

Improving the methodology for preparing pupils for biology olympiads by means of differential tasks (as on example of academic lyceums)..... 48

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 52

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.09.2024.B.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ABDUVAHITOV BOZORMUROD**

**DIFFERENSIAL TOPSHIRIQLAR VOSITASIDA O‘QUVCHILARNI**  
**BIOLOGIYA FANI OLIMPIADALARIGA TAYYORLASH**  
**METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**  
**(akademik litseylar misolida)**

**13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.Phd/Ped4947 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzpfiti.uz](http://www.uzpfiti.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qodirov G‘ayrat O‘roqboyevich**  
Pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xushvaktova Xusnobod Soliyevna**  
Pedagogika fanlari doktori, professor

**Xo‘janazarov O‘ktam Eshtemirovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/27.09.2025.B.82.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: [chdpu\\_kengash@umail.uz](mailto:chdpu_kengash@umail.uz))

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712- 45-41.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2025 yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**V.B.Fayziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
b.f.d., professor

**A.Q. Bo‘ronov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
b.f.f.d. (PhD), dotsent

**H.A. Mo‘minov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida fan-texnika rivojlanib borayotgan axborot asrida yuqori bilim va salohiyatga ega bo'lgan, o'z bilimlarini zamonaviy texnika yutuqlari bilan integratsiya qila oladigan, fan va jamiyatning kelajagini ilmiy jihatdan to'g'ri faraz qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi. Turli mamlakatlar taraqqiyotining muhim aspekti sifatida ta'lim jarayoning samarali tashkil qilinishi hamda o'quvchi-yoshlarning bilim darajasi asos qilib olinmoqda.

Dunyo mamlakatlarida ta'limning qay darajada rivojlanganligi va ularning reytingi turli xalqaro fan olimpiadalari hamda xalqaro baholash dasturlari orqali baholanadi. Shu sababga ko'ra deyarli barcha mamlakatlarda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning o'ziga xos maktablari tashkil etilgan bo'lib, ular mamlakatning ilmiy-tadqiqot institutlari, ko'zga ko'ringan olimlari hamda zamonaviy metodikalar hamohangligida faoliyat ko'rsatadi. Iqtidorli o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan ta'lim jarayoni mamlakat fan-ta'lim taraqqiyotining yetakchisi sifatida qoraladi.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda iqtidorli yoshlarni aniqlash, saralash, hamda ularning iqtidorini rivojlantirish, Prezident va ijod maktablarining va fan olimpiadalarini tashkil qilinishi, yoshlarni olimpiadalarga tayyorlash uchun alohida murabbiylarning biriktirilishi hamda sovrindor bo'lgan yoshlar hamda ularning murabbiylarini rag'batlantirish asosida muhim natijalarga erishildi. Shu bilan bir qatorda "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o'qitish va tarbiyalash tizimini takomillashtirish borasidagi faoliyatini davom ettirishi uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish<sup>1</sup>" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vaziflardan kelib chiqib, o'quvchi yoshlarni tanlash hamda ularni xalqaro fan olimpiadalariga tayyorlash metodikalarini ishlab chiqish, differensial topshiriqlar jamlanmasini va bu jarayonlarni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF - 5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 3-maydagi PQ - 4306-son "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son "Prezident maktablarini tashkil etish chora - tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 12-dekabrda PQ-4910-son "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 9-yanvardagi 9-son "Ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlarning faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi, 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim fan va

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyuldagi PQ-5188-son "Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5520855>

innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora - tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentyabrdagi 562-sonli "Iqtidorli o'quvchilar o'rtasida fan olimpiadalarini o'tkazish tizimini takomillashtirish hamda xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktabni aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishida innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorijiy davlatlarda o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, metodik ta'minotni ishlab chiqish borasida bir qancha olimlar o'zining samarali faoliyatini amalga oshirgan. Jumladan, A.Crowe, J.Stang, D.Urahne, S.Nicklar (olimpiada jarayonlariga o'quvchilarni samarali tayyorlash), S.Walker (biokimyo), P.Eugene (ekologiya), A.Christina. G.Heather N.Cushman (anatomiya va fiziologiya), L.Hartwell, L.Hood, M.Goldberg, A.Reynolds, L.Silver, R.Brooker, J.Ayale genetika, J.Reece, L.Urry, L.Cain, S.Wasserman, R.Jackson, P.Minorsky, N.Campbell, R.Johnson (umumiy biologiya) sohalariga oid fan olimpiadalariga tayyorgarlik jarayonlari uchun adabiyotlar va metodik ishlanmalar yaratishgan. Fan olimpiadalariga tayyorlash metodikasi sohasida M.Petrulyte, R.Manglik, J.Campbell, Ch.Lind, G.Bhardwaj, P.Gimenez, N.Bugescu, J.Black kabi olimlarning ishlarini alohida e'tirof etish mumkin.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida fan olimpiadalarining metodikasi yo'nalishida S.A.Kamayeva, T.A.Kalgina, Yu.Yu.Kleymenova, O.A.Sareva, A.A.Terexina, G.E.Asilbekova, V.N.Aliyasova, I.V.Boldishor, Romanova Olga Viktorovna, Podlipskiy Oleg Konstantinovich, Marchukova Olga Grigorevna, Agaxanov Nazar Xangeldiyevich, Kiryakov Boris Sergeyevich, Podlesniy Dmitry Vladimirovich, Rodgin Yevgeniy Fyederovich A.K.Alekseyevnina, N.S. Buslova, Baisheva Marina Ivanovna, Chikova Olga Anatolevna, G.F. Privalova kabi olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borgan.

Respublikamizda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash muammosi bir qancha psixolog va pedagog olimlarning ishlarida o'z aksini topgan. O'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyati bo'yicha S.X.Sirojiddinov, B.A.Qodirov; biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan J.O.Tolipova, A.K.Raximov, N.N.Narziyeva, M.T.Umaraliyevlar, biologiya o'qitish jarayonida o'quvchi subyekti bilan ishlash tamoyillarini R.X.Jo'rayev, A.T.G'ofurov, R.G.Safarova, O.Musurmonova, S.Nishonova, N.Ortiqov, M.N.Ibodova, M.M.Lutfullayev, S.S.Fayzullayev, L.M.Qaraxanovalar ishlab chiqishgan. M.Abdullayeva,

Z.M.Yarmatov, F.X.Raxmatova, I.Abduraxmonova, A.Q. Raxmatullayevalar tomonidan o'quvchilarda iqtidorlilik va uning rivojlanish jarayonlari o'rganilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarni fan olimpiadalarga tayyorlash yuzasidan asosan matematika, kimyo va fizika fanlaridan atroflicha pedagogik ilmiy - tadqiqotlar olib borilganligi ma'lum bo'ldi. Biroq, asosiy STEAM fani hisoblanadigan biologiya fanidan olimpiadalarga tayyorlash metodikasiga oid ilmiy tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universitetining bosh ilmiy mavzusi "Talabalarni tarbiya va o'qitish usullari, axborot - kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni o'zlashtirishlariga qaratilgan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha kompleks tadqiqotlar" asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** differensial topshiriqlar vositasida o'quvchilarni biologiyadan fan olimpiadalariga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqot vazifalari:**

akademik litseylarda biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlashda iqtidorli o'quvchilarni tanlash, ularga ta'lim berish va ularning qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy faoliyatining mavjud holatini o'rganish va tahlil etish;

biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash, o'quvchilarning differensial topshiriqlardan foydalanish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi ijtimoiy, moddiy-texnik, pedagogik hamda psixologik imkoniyatlardan samarali foydalanish chora - tadbirlarini belgilash;

rivojlangan xorijiy mamlakatlar, shuningdek, respublika ta'lim muassasalarida biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlashda differensial topshiriqlar vositasida o'qitish borasida to'plangan tajribalarni o'rganish va ularni milliy - mintaqaviy xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirilgan metodikasini ishlab chiqish;

differensial topshiriqlar vositasida o'quvchilarni biologiya fani olimpiadalariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish jarayonining modeli va uni amaliyotga tatbiq etish samaradorligini tahlil qilish;

ilg'or innovatsion yondashuvlar asosida biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash samaradorligini ta'minlovchi zamonaviy laboratoriya tashkil etish va ularni jihozlash jarayoni mazmuni hamda amaliy asoslarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'yekti** akademik litsey o'quvchilarini biologiyadan fan olimpiadalariga tayyorlashda differensial topshiriqlar asosida takomillashtirish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti** akademik litseylarda biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni, shakl, metod va vositalari majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, kontent-tahlil, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, so'rovnoma, suhbat, psixologik test, intervyu, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

biologiya fanidan olimpiadalarga tayyorgarlikka oid o'quv-metodik modulning tayanch, amaliy va ijodiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi integrativ o'quv-amaliy materiallar majmuasining mazmuni nazariy, amaliy va ijodiy bloklar uyg'unligi hamda muammoli yechimlar va tahliliy ko'nikmalaridan foydalanish asosida Blum taksonomiyasi klassifikatsiyasi orqali kognitiv qobiliyatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga ko'ra takomillashtirilgan;

biologiya fanidan iqtidorli o'quvchilarni olimpiadalarga samarali tayyorlashda qo'llaniladigan vaqt taymeri, motivatsiya, tanqidiy tahlil kabi metodlar moslashuvchan vaqtni boshqarish vositalari, o'yinli-texnologik elementlar va kichik guruhlarda raqobat muhitini yaratadigan o'quv-pedagogik dasturlar bilan mantiqan uyg'unlashtirilib, Google Sheets, LMS va Moodle avtomatlashtirilgan rag'batlantirish platformalariga konstruktivistik yondashuv orqali integratsiya qilinishi asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarni olimpiadalarga tayyorlashda uyg'unlashtiruvchi pedagogik mexanizmlarning tarkibiy qismlari amaliy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini o'quvchilar individual profili negizida tuzilgan moslashuvchan o'quv modullari orqali o'quvchining individual bilim ehtiyojlariga mos trayektoriya tuzish asosida takomillashtirilgan;

iqtidorli o'quvchilarni olimpiadalarga tayyorlashda tanqidiy fikrlash va ijodiy muammolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishning strukturaviy-komponentli modeli xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan inquiry-based learning (tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish) va cognitive apprenticeship (mutaxassis tajribasi orqali o'qitish) elementlarini milliy ta'lim amaliyotida empirik-eksperimental tahlillarning metodik aprobatsiyasi asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlashda differensial topshiriqlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi hamda samaradorligining tajriba ishlari vositasida tasdiqlanganligi;

tadqiqot davomida qo'lga kiritilgan tahlil natijalariga tayanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-sonli qarori asosida Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyida o'quvchilarni xalqaro biologiya olimpiadalariga tayyorlash uchun laboratoriya tashkil qilinganligi;

tadqiqot g'oyalari va natijalari biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlashda differensial topshiriqlardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodika bevosita akademik litseylar, ixtisoslashgan, shuningdek,



umumiy o'rta ta'lim hamda qo'shimcha ta'lim muassasalarida faol qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tajriba natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llangan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, empirik o'rganishlar asosida keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik - statistik tahlillar yordamida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotning bosh g'oyasi, nazariy mazmuni hamda tajriba - sinov ishlari natijalari O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi fan olimpiadalari bilan ishlash departamenti tomonidan tashkil etilgan o'qituvchilar uchun seminarlar, xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi terma jamoa a'zolari uchun tashkil etilgan maxsus o'quv kurslarida, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan tashkil etilgan hududiy, viloyat va Respublika fan olimpiadalarida qo'llanilgan;

tadqiqotning asosiy g'oyalari "Tafakkur ziyosi", "Pedagogika" va "Uzluksiz ta'lim" kabi jurnallar, shuningdek, ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalarning to'plamlarida chop ettirilgan maqolalar vositasida ommalashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati akademik litseylarda biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlashda differensial topshiriqlardan foydalanish samaradorligini oshirish muammosining tadqiq etilishi pedagogik zaruriyat ekanligi asoslangan. Tadqiqot muammosi mohiyatini yorituvchi («iqtidor», «iqtidorli bola (o'quvchi)», «differensial topshiriqlar», ("fan olimpiadalari")) tayanch tushunchalari nazariy sharhlangan. Respublika va Xalqaro fan olimpiadalariga iqtidorli bolalarni tanlash va ularga ta'lim berishda ta'lim muassasasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mazmuni ishlab chiqilgan. Xorijiy mamlakatlarda amalda bo'lgan biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlashda differensial topshiriqlardan foydalanish va ularga ta'lim berishga oid mualliflik loyihalari (testlar), dars ishlanmalari, monografiya va metodik qo'llanma uzluksiz ta'lim tizimida samarali qo'llashning ilmiy-pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlashda differensial topshiriqlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi; ular samaradorligining tajriba ishlari vositasida tasdiqlanganligi; tadqiqot g'oyalari va natijalaridan biologiya fan olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda differensial topshiriqlardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodika bevosita akademik litseylar, ixtisoslashgan, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim hamda qo'shimcha ta'lim muassasalarida faol qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Differensial topshiriqlar vositasida o'quvchilarni biologiya fani olimpiadalariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishda bevosita akademik litsey o'quvchilarini biologiya fanidan asosiy, qo'shimcha va xalqaro fan olimpiadalariga tayyorlash yuzasidan zamonaviy metodlar ishlab chiqilib, ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan. Mazkur tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishda akademik litseyda biologiya fani doirasidagi tadqiqotchilik ko'nikmalarini kompetensiyaga aylantirish, ularning tadqiqot ishlariga yo'naltirishda bugungi zamonaviy fan texnologiyalaridan joriy etish asosida rivojlantirish, shuningdek, xalqaro fan olimpiada dasturlarining tadqiqotchilikka yo'naltirishdagi mazmun – mohiyati, tadqiqot yuzasidan olingan ilmiy natijalarning xulosalari va tavsiyalaridan foydalanildi. Ilmiy izlanish natijalari fan olimpiadasida ishtirok etuvchi O'zbekiston Respublikasi terma jamoasi uchun tashkil etilgan maxsus o'quv kurslarida qo'llanilgan va yuqori samaradorlikka erishilgan. Tadqiqotchi tomonidan tayyorlangan o'quvchilar tajriba - sinov davri mobaynida asosiy olimpiadaning Respublika bosqichida to'rtta sovrinli o'rin, xalqaro olimpiadalarda Yaponiyaning Nagasaki shahrida kumush, Portugaliyaning Lissabon shahrida oltin, Armanistonning Yerevan shahrida merit diplomi, Tailandning Bangkok shahrida bronza medalini qo'lga kiritishgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida akademik litseylar uchun fizika, kimyo hamda biologiya fanlaridan xalqaro fan olimpiada laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash maqsadida tashkil qilingan ishchi guruh tarkibida laboratoriya jihozlarini saralash yuzasidan tadqiqot natijalari asosida tavsiyalar qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-yil 05-noyabrdagi 03/14-3187-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu tavsiyalar asosida Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyida Respublikamizda ilk bor biologiya fani olimpiadalari amaliy mashg'ulotlarini bajarishga ixtisoslashgan laboratoriya tashkil qilingan.

Mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan tashkil etilgan fan olimpiadalarda olimpiada materiallarini tayyorlash, aprobatsiyadan o'tkazish, fan olimpiadasini tashkil etish, hakamlar hay'ati va appelyatsiya komissiyasi faoliyatini tashkil etish jarayonlarida keng tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining 2023-yil 16-oktabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi maktablarning o'quvchilari uchun o'tkaziladigan "Agentlik olimpiadasi" metodik jihatdan ta'minlangan hamda muayyan tizimga keltirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Ulardan o'ntasi ilmiy jurnallarda nashr etilgan maqolalardir.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar kabi qismlardan tashkil topgan. Uning umumiy hajmi 145 betdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi va vazifalari, oby'ekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Differensial topshiriqlar vositasida o'quvchilarni biologiyadan fan olimpiadalariga tayyorlashning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida akademik litsey o'quvchilarini fan olimpiadalariga tayyorlashning bugungi kunga qadar mavjud tarixi va uni tashkil etishning hozirgi holati, erishilgan natijalar tahlili, differensial topshiriqlar vositasida biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorgarligini tashkil etishning ilmiy-pedagogik mazmuni, shuningdek, iqtidorli o'quvchilarni biologiyadan fan olimpiadalariga tayyorlashda ularning amalga oshirayotgan jarayonda fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik va gigiyenik xususiyatlari yoritilgan.

Iqtidorli o'quvchi bu - bilim imkoniyatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan, muayyan darajada yutuqlarga erishgan, inson kapitali sifatida qadrga ega, qo'llab-quvvatlanishni talab qiladigan shaxs hisoblanadi.

Real pedagogik amaliyot iste'dodli o'quvchilarning faqatgina uch turkumini ajratib ko'rsatadi. Mazkur ajratib ko'rsatilgan birinchi turkumga mansub iste'dodlar – umumiy iste'dod darajasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega o'quvchilar hisoblanadi. Ikkinchi turkum iste'dodlariga – faoliyatining ayni sohalarida muvaffaqiyatga erishgan o'quvchilar guruhi bo'lib, ularga yosh musiqachilar, rassomlar va sportchilar kiritiladi. Uchinchi turkum iste'dodli o'quvchilar guruhiga – maktabda boshqa o'quvchilardan iqtidori bilan farqlanuvchilarni kiritish o'rinlidir (akademik iste'dod). Tadqiqotning tahlillaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, maktab o'quvchilari orasidagi fan olimpiadalariga tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchilar iste'dodli o'quvchilarning birinchi turkumiga mansub hisoblanadi. OECD manbalariga ko'ra bunday o'quvchilar iqtidorli o'quvchilarning atiga to'qqiz foizini tashkil etadi.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash yuzasidan tadqiqotchi olimlar A.Crowe, J.Stang, D.Urahne, S.Nick, M.Baisheva, S.A.Kamayeva, T.A.Kalgina, Yu.Yu.Kleyменова, O.A.Saryeva, M.Abdullayeva, Z.M.Yarmatov, F.X.Raxmatova, I.Abduraxmonova, A.Q Raxmatullayevalar tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan.

Biologiya olimpiadasi o'quvchilarning qanchalik ko'p ma'lumotlarni o'zlashtirganlik darajasini emas, balki bilimlarni turli notanish vaziyatlarda qo'llash, ma'lumotlarni tushunish, ilmiy tajribalar natijalarini sharhlash va berilgan ma'lumotlardan oqilona xulosalar chiqarish qobiliyatini sinash uchun mo'ljallangan.

Fan olimpiadalarida ishtirok etuvchi iqtidorli o'quvchilarni saralab olishda ularning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish zarur: umumiy fundamental bilimlar bazasi mavjudligi, ma'lumotlarni tez va mukammal o'zlashtirish qobiliyati, diqqatning barqarorligi, xotirada uzoq va barqaror saqlash qobiliyatining yuqoriligi, topshiriqda berilgan muammoni yuqori darajada tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi, xorijiy (ingliz, nemis, fransuz va rus) tillarni bilish ko'nikmasiga ega bo'lish darajasi, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash ko'nikmasining mavjudligi, psixologik barqaror (depressiya va stressga berilmaslik) bo'la olish qobiliyati, matematik bilimlarning o'zlashtirish qobiliyatining yuqoriligi.

O'quvchilarning saralash olimpiadalarini tashkil qilishda ishtirok etuvchi o'quvchilar sonining maksimal ko'pligini ta'minlash lozim. Taqdim qilinayotgan topshiriqlarda o'quvchilarning yod olish qobiliyatini emas, balki ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini ham nazorat qilish zarurligi talab etiladi.

Fan olimpiadalarining quyi bosqichlarida murakkab savollarni qo'llab bo'lmaydi. Shuning uchun ham fan olimpiadalarida differensial topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Olimpiadaga saralashning har bir bosqichida o'quvchilarning bilim ko'rsatkichlaridan tashqari, ularning psixologik holatlarini ham kuzatib borish maqsadga muvofiq.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda (2021-y.) Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyida bir guruh o'quvchilarning xalqaro biologiya olimpiadasiga saralash bosqichi jarayonidagi tahlillarda qayd etilgan faktlarni dissertatsiyada batafsil keltirib o'tilgan.

Tadqiqotchi olim N.Y.Kushnarayeva tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida "iste'dod darajasidagi farq"ni aniqlash mezoni ishlab chiqilgan bo'lib, olimda unda iqtidorning ikkita asosiy turini farqlaydi: Kuchli iqtidorga ega o'quvchilar va "Odatiy" ya'ni boshqa o'quvchilarga nisbatan iqtidorli o'quvchilar. Kuchli iqtidorga ega o'quvchilar quyidagi uchta xususiyatga ega bo'ladi. Ya'ni: murakkab intellektual faoliyatga moslashuvchanlik, murakkab o'quv matnlarini tez anglash, tushunish, o'zlashtirish hamda isbotlanmagan ma'lumotlarni qabul qilmaslik va yuqori tanqidiy tafakkurga ega bo'lish.

Tadqiqot ishida N.Y.Kushnaraeva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini, iqtidorli o'quvchilarni saralash va ularni o'qitish jarayoniga takomillashtirib, empirik tadqiqot natijalaridan hosil bo'lgan faktlar bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llanildi. Fan olimpiadalariga iqtidorli o'quvchilar yuqoridagi uch xususiyat asosida saralab olinadi. Ayniqsa, birinchi va ikkinchi xususiyatlar nufuzli xalqaro olimpiadalarda ishtirok etuvchi o'quvchilar uchun o'ta muhimdir. Buning bir qancha sabablarini keltirib o'tishimiz mumkin: fan olimpiadalariga tayyorgarlik jarayonlarida mantiqiy va tanqidiy fikr yuritish

muhim omil ekanligi, fan olimpiada savollari butunlay notanish tajribalar va faktlarga boy bo'lishi, o'quvchilar hali duch kelmagan amaliy topshiriqlar va laboratoriya mashg'ulotlariga duch kelishlari mumkinligi, olimpiada topshiriqlaridagi savollar juda katta matndan iborat bo'lib, ular orasidan kerakli ma'lumot va dalillarni ajrata olish talab etilishi, yangicha tipdagi savollarni tezlikda bajarish uchun yuqori darajadagi idrokiga ega bo'lish.

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston terma jamoasi 1997-2023-yillarda jami 20 ta (3 oltin, 4 kumush, 13 bronza) medallarni qo'lga kiritishgan. Afsuski, O'zbekiston terma jamoasi 2001-2011, 2017-yillarda tashkil etilgan xalqaro biologiya fan olimpiadalarida ishtiroki kuzatilmagan.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi yillarda terma jamoa a'zolari harajatlari homiylik asosida moliyalashtirilganligi ham ma'lum. Tahlillar shuni ko'rsatib turibdiki, oxirgi 4 yil davomida so'nggi 26 yilda qo'lga kiritilgan 20 ta medaldan 13 tasi, jumladan 3 ta oltin, 3 ta kumush va 7 ta bronza medallar qo'lga kiritilgan. Ushbu natijalar iqtidorli o'quvchilar hamda fan olimpiadalarini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda Xalqaro biologiya olimpiadasida ishtirok etuvchi O'zbekiston terma jamoasini shakllantirish uchun saralash olimpiadalari 2012-yildan boshlab ikki bosqichda o'tkazish boshlangan.

Qobiliyatli maktab o'quvchilari bilan ishlashda eng faol ishtirokni biologiya fanlari doktori, professor O.Eshonqulov, dotsent G.Umarova, o'qituvchilardan D.To'xtayev, M.Muhammedova, N.Abdurahmonova, Z.Ro'zikulova, D.G'oyibova, B.Abduvahitov, H. Egamov va boshqalar amalga oshirishgan.

Bugungi kunda fan olimpiadalariga tayyorgarlikning o'ziga xos maktablari shakllangan. Xususan, Toshkent shahrida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litseyi, Jizzax shahrida Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi, Navoiy shahrida ayrim fanlarga ixtisoslashgan maktab-internati va Buxoro viloyatida Qorako'l akademik litseyi shular jumlasidandir.

Tadqiqotlar davomida P.Balonskiyning "Tanqidiy tahlil", B.Blumning "Blum taksanomiyasi", N.Y.Kushnarayevaning "Istedod darajasidagi farq", L.M.Qaraxonovaning "Nostandart testlarni qo'llash", T.Cheremuxinaning "Iqtidorli o'quvchilarning dinamik differensial guruhlar" kabi metodlari tahlil qilinib, olingan xulosalar asosida iqtidorli o'quvchilarni saralash, ularni o'qitishga oid takomillashgan metod hamda tavsiyalar ishlab chiqildi. O'quvchilarning iqtidorini yanada rivojlantirish uchun dastlab ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirib olishimiz zarur. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- fan olimpiadalaridagi topshiriqlar asosan o'quvchilarning yod olish qobiliyatini emas, fikrlash qobiliyatini tekshirishga asoslangan.

- o'quvchilarda qanchalik tanqidiy fikrlash qobiliyati kuchli rivojlangan bo'lsa, olgan bilimlari asosida ma'lumotlarni umumlashtirish va xulosa qilish qobiliyati yuqori bo'ladi.

- savolni tushunishi va muammoni hal qilish uchun sarflaydigan vaqtini qisqartiradi.

Odatda, fan olimpiadalarida ishtirok etish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan o'quvchilar o'smirlik yoshi (15-18 yosh)da bo'lishadi. Shuningdek, ko'pgina psixologik manbalarda aytilishicha, o'smir o'quvchi o'z oldiga maqsad qo'ya oladi va shu maqsad sari intilishga o'rgana boshlaydi. E.G'oziev fikrlariga ko'ra, maktab ta'limining bevosita ta'siri bilan o'smirda o'zini anglash jarayoni rivojlana boshlaydi.

Fan olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda ularning psixologik holatini to'g'ri baholay olish va rivojlantirish chora-tadbirlarini qo'llash ham muhim omil hisoblanadi. Shu o'rinda, tadqiqot natijalari asosida **o'quvchilar uchun maxsus gigiyenik tavsiyalar ishlab chiqilganligini** qayd etish joiz. Bunday tavsiyalar o'quvchilarning o'qish va kun rejimini to'g'ri hamda samarali tashkil qilishlariga yordam beradi. Tadqiqot amaliyotidan orttirilgan tajribalar asosida olimpiadachi o'quvchilarda shakllantirish zarur bo'lgan psixologik va gigiyenik xususiyatlarni inobatga olib, iqtidorli o'quvchilar uchun ko'p qo'llaniladigan **“Vaqt taymeridan foydalanish”, “Motivatsiyalarni qo'llash”, “Uyquni to'g'ri yo'lga qo'yish”, “Tayyorgarlikni rejalashtirish”** kabi metodlar ishlab chiqildi. O'quvchilarning olimpiadaga tayyorgarlik kun tartibi ishlab chiqildi.

Olimpiada uchun samarali strategiyaga ega bo'lishning siri bu - majburiyatga mos keladigan va maqsadga erishishga yordam beradigan shaxsiy (haftalik va oylik) jadvalni yaratish zarur. Rejalashtirishni to'g'ri tashkil etilganda, o'quvchining fanni o'zlashtirishda qanday, qachon va nimani takrorlamoqchi ekanligini o'ylab ko'rish va to'g'ri yo'naltirish talab etiladi. Bu bevosita o'quvchini tayyorgarlik jarayonini tizimli davom ettirishiga katta yordam beradi. Yuqoridagi talablarga mos keladigan **tayyorgarlik rejasi M.Petrulytening ishlarini tadqiqotchi tomonidan takomillashtirish asosida 26 haftaga taqsimlangan holda tuzib chiqilgan.** Tadqiqot amaliyotidan orttirilgan tajribalar asosida olimpiadachi o'quvchilarda shakllantirish zarur bo'lgan psixologik va gigiyenik xususiyatlarga dissertatsiyada alohida to'xtab o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“O'quvchilarni biologiya fani olimpiadalariga tayyorlashda qo'llaniladigan topshiriqlarni differensiallash metodikasini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlashda differensial topshiriqlardan foydalanish vositasida biologiyadan fan olimpiadalariga tayyorlashning didaktik mazmuni, o'quvchilarni rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida biologiyadan milliy va xalqaro fan olimpiadalariga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning ilmiy-metodik muhim jihatlari, o'quvchilarni xalqaro olimpiadalarga tayyorlashdagi asosiy talablar haqidagi fikrlar bayon etilgan, hamda, ilmiy asoslangan.

Ta'limni differentsiatsiyalash prinsipi – pedagogik jarayonni tabaqalashtirish holati ekanligi bilan izohlanadi. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi ma'lum o'quv jarayonini qamrab oluvchi differensial ta'lim tashkiliy masalalari yechimi, metodi va vositalarining uyg'unligi bilan tavsiflanadi. Differensial yondashuvni amalga oshirish bir tipdagi gomogen o'quvchilar guruhlarini shakllantirishni nazarda tutadi. O'zlashtirishi yuqori o'quvchilar uchun ularning intellektual ehtiyojlari darajasiga mos topshiriqlar ishlab chiqish lozim.

Tadqiqot davomida qo'lga kiritilgan tahlil natijalari hamda mavjud metodikalarni takomillashtirish negizida, o'quvchilarni biologiyadan fan olimpiadalariga tayyorlashda qo'llaniladigan topshiriqlar, o'quvchilarning qobiliyatlariga ko'ra guruhleri, fanning turli sohalariga oid savollar guruhleri, testlarning qiyinlik darajasiga ko'ra guruhleri, o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlariga ko'ra guruhleri differensiallashtirildi hamda statistik baholandi.

Milliy olimpiadalarimizning barcha bosqichlardagi test materiallari uchta differensial guruhga ajratiladi:

- oson daraja - 1-10-test savollaridan iborat bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 0,9 balldan umumiy 9 ball ajratiladi;
- o'rta daraja – 11-20-test savollaridan iborat bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 1,5 balldan umumiy 15 ball ajratiladi;
- qiyinlik darajasi yuqori bo'lgan va javobi yoziladigan 21-30-savollarning har bir to'g'ri yozilgan javob uchun 2,6 balldan umumiy 26 ball ajratiladi.

Tadqiqot davomida **AQSH, Xitoy, Avstriya, Rossiya, Buyuk Britaniya** kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash ta'lim dasturlari o'rganildi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga oid Yevropa Ittifoqi Oliy qobiliyatlar kengashi (EChA Diploma) dasturi, Angliyada iqtidorli o'quvchilar uchun "Xalqaro miqyosda iqtidorlilarni o'qitish" (Gifted Educational International) maxsus jurnali, O'zbekiston Respublikasining "Ustoz – shogird" uslubi, Beksler testi, Kok kubiklari, Amtxauer, Gilford va Torrens test dasturlari, shuningdek Matrina Petrulyte tomonidan yozilgan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlashga oid metodik qo'llanmalar tahlil qilindi.


Differensial ta'limning asosiy yo'nalishi iqtidorli, qobiliyatli bolalar va o'smirlarni o'qitishdir. Hozirgi kunda jahon pedagogikasida bu masalaga qiziqish yanada kuchaydi. Olimpiadaga tayyorgarlik davomida o'quvchining biologiya fanining bo'limlari kesimida tushunchalarni berilishi masalasi asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro olimpiadalarda eng ko'p qo'llaniladigan MCQ testi turli xil bilimlarni, jumladan, terminologiya, faktlar, tushunchalar, prinsiplar va ilmiy protseduralarni tushunish, shuningdek, biologik bilimlarni qo'llash va sharhlash qobiliyatini o'lchashga xizmat qiladi. MCQ testlarining har xil turlari mavjud bo'lib, o'quvchi ularni bir-biridan farqlay olishi zarur, bu o'quvchiga savollarga to'g'ri javob topishida yordam beradi. **Dissertatsiyaning ushbu bobida tadqiqotchi tomonidan test topshiriqlari oltita - bilim, tushunish, o'rgangan bilimlarni qo'llash, tekshirish, tahlil qilish, baholash differensial guruhlariga ajratilib, misollar bilan batafsil tahlil qilib berilgan.**

Butun dunyo bo'ylab o'tkaziladigan ko'plab biologiyadan fan olimpiadalari va tibbiyot muassasalariga kirish imtihon test topshiriqlari (**AQSHdagi Tibbiyot kollejiga kirish testi (MCAT), Buyuk Britaniyadagi Biotibbiyot oliygohiga kirish testi (BMAT) va Buyuk Britaniyadagi Klinik qobiliyat testi (UKCAT)** kabi boshqa imtihonlarda asosan bir nechta ko'p tanlovli savollar (MCQ) qo'llaniladi.

Xalqaro Biologiya olimpiadasining xarakterli jihatlaridan biri, olimpiada o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki aniq qobiliyatlarini ham tekshiradi. Bu asosida iqtidorli o'quvchilarning aynan qanday biologiya sohalariga nisbatan yuqori qobiliyatga ega ekanligi tekshirilib, xulosalar asosida o'quvchilar o'zining kelajakdagi biologik tadqiqot yo'nalishlarini belgilab olishlari mumkin bo'ladi. **IBO tomonidan tekshiriladigan asosiy qobiliyatlarga tayanib biz ularni quyidagi differensial guruhlarga ajratishimiz mumkin: Shakillantirish va modellardan foydalana olish, re'jalashtirish, yangi tushunchalarni aniqlash, analiz va ma'lumotlardan foydalana olish, matematik va kompyuter fikrlash qobiliyati, ma'lumotlarni integratsiyalash, o'zaro bog'lash, keltirib chiqarish.**

Tadqiqot davomida o'quvchilarning biologiyadan fanlar kesimida mavzular bo'yicha **kognitiv qobiliyatlarni baholashga oid differensial savollarning 1993-2022-yillar oralig'idagi dinamikasi tahlil qilindi.** Ushbu tahlil natijalarini quyidagi diagrammada ifodalaymiz (1-rasm).



**1-rasm. Kognitiv qobiliyatlarni baholashga oid differensial savollarning 1993-2022-yillar oralig'idagi dinamikasi**

O'quvchilarni biologiya fanidan milliy va xalqaro fan olimpiadalariga tayyorlashni **“SMART”, “Vaqt taymeridan foydalanish”, “Korrelyatsion bog'liqlikni farqlash”, “Tanqidiy tahlil”, “Muammoni hal qilish strategiyasi” metodlari** yordamida o'qitish yuqori samara berishi tajriba-sinov ishlarida qayd etildi.

**“SMART” metodini** biologiyadan o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash o'quv jarayoniga tatbiq etildi hamda takomillashtirildi. SMART metodi aniq maqsadlarni qo'yish, ularni loyihalashtirish va muvaffaqiyatsizliklarni yengishga yordam beradi. U maqsadlarni quyidagicha umumlashtiradi:

Specific (maxsus) – maqsadga erishish uchun aniq belgilangan harakat qilish kerak. Bu “nima”, “nima uchun” va “qanday qilib” kabi savollarga javob beradi.

Measurable (baholanadigan) – taraqqiyotni kuzatish va kerakli natijani baholash uchun yo'l mavjud. Rivojlanishni o'lchash orqali maqsadga qay darajada yaqinlashib borayotganlikni bilib olish mumkin.

Attainable (erishib bo'ladigan) – haqiqatan ham maqsadga erishib bo'ladimi? Unga erishish uchun ma'lum ko'nikma mavjudmi?



Real (haqiqiy) – maqsadlar haqiqiymi? Sarflangan vaqtga arziydimi?

Time-Bound (chegaralangan vaqt) – maqsadlarni ma'lum muddatlar bilan chegaralash kerak.

**Metodning qo'llanilishi:** Olimpiadada ishtirok etishni istagan deyarli barcha o'quvchilar orasida “Men Campbellni to'liq yodlamoqchiman” kabi maqsadlar keng tarqalgan. Maqsad aniq (ya'ni darslikni yodlash), lekin o'lchanmagan va aniq vaqt bilan ham bog'lanmagan. Bundan tashqari, muvaffaqiyatni baholash uchun belgilangan muddatlar va choralar bo'lmasa, bu haqiqatdan amalga oshishi dargumon. O'quvchi maqsadiga erishishi uchun strategiya yoki re'ja tuzish haqida o'ylab ko'rishi kerak.

Maqsadni SMART metodiga qo'yib, qayta tahlil qilamiz. Natijada “maqsadim Campbelldan har hafta beshta bo'limni o'rganish va uni 11 haftada 55 ta bo'limni o'qib tugatish” kabi tushuncha paydo bo'ladi. Maqsadi aniq (Campbelldan hamma narsani o'rganish), baholangan (o'rganishi kerak bo'lgan 55 ta bo'lim bor), vaqt bilan bog'langan (unda jami 11 hafta bor), real va erishish mumkin (o'z ishini 5 ta bo'lakka ajratish orqali amalga oshirish mumkin) bo'lgan rejaga ega bo'ladi. Bu metodning ijobiy tomoni shundaki, uning yordamida maqsadlarni o'lchash mumkin bo'ladi va bu o'quvchini yanada oldinga siljitadi. Har haftaning boshida metodga tayanib maqsadlar qo'yish, haftaning so'ngida muvaffaqiyatlarni tekshirish va yangi haftalar uchun yana yangi maqsadlar qo'yish kerak.


**“Vaqt taymeridan fodalanish” metodi.** Bu usul 1980-yillarning oxirida Francesco Cirillo tomonidan ishlab chiqilgan Pomodoro texnikasi sifatida tanilgan usul hisoblanadi. O'quvchi uchun bu kechiktirishni yengish uchun eng foydali usul bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy tarmoqlarni ko'rish, o'yin o'ynash va filmlarni tomosha qilish – bularning barchasi zavqli ishlar, ammo qiziqarli ko'ringan bunday ishlar unumdorlik va vaqtini yo'qotishga sababchi bo'ladi. O'quvchi vaqtini asosan foydasiz narsalarga sarflashdan ko'ra, unga ko'proq foydasi tegadigan narsalarni bajarishga sarflashi kerak.

**Metodning qo'llanilishi:** Bu usul ishni qisqa tanaffuslarga ajratish uchun taymerdan foydalanishga asoslangan, ya'ni darslik o'qiyotganda yoki biologiyadan topshiriqlar varaqlarini bajarayotganda, taymerni ma'lum bir vaqt oralig'iga, masalan, 60 daqiqaga o'rnatish kerak. Bu vaqt ichida topshiriqni imkon qadar ko'proq bajarish zarur. Taymer jiringlaguncha iloji boricha ko'proq vazifa bajarishga o'rganish lozim. Agar bu yordam bermasa, o'quvchi o'zini poygada ekanligini tasavvur qilishi kerak. Unda faqat bitta urinish bor. Shuning uchun, vazifani bajarish uchun qo'lidan kelganini qilishi, go'yo bu uning qo'lidan kelganini ko'rsatish uchun yagona imkoniyatdek harakat qilishi kerak. Vaqt tugagach, o'ziga qisqa tanaffus berish (3-5 daqiqa) va o'qishning boshqa bosqichiga o'tishi lozim.

**“Tanqidiy tahlil” metodi.** Olimpiadada ba'zi holatlarda o'quvchi uchun murakkablik darajasi yuqori bo'lgan muammoli savol-topshiriqlar variantlari beriladi. O'quvchi o'z bilim-ko'nikmalaridan foydalangan holda savolda keltirilgan ma'lumotlarni yechishda o'ylashi, tahlil qilishi va taxmin qilishi lozim.

